

ALEKSANDR FAYNBERGNING SHE'RLARIDA HAYOT FALSAFASI

Abdirayimova Lola

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti talabasi

“Sotma faqat ruh, imoningni ...” Ha, ushbu so'zlar har bir insonni poklikka, uyg'oqlikka chorlaydigan, hayot falsafasini anglashga undaydigan satrlar muallifi, O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg qalamiga mansub. Xalqimiz va adabiyot ahli shoirni; “o'zi rus, lekin qalbi o'zbekcha uradigan shoir” – deya ta'riflagan. Bu ta'rif hammaga ham berilmaydi, sababi buning uchun, avvalo, inson so'ngra shoir sifatida fazilatlarga ega bo'lishi kerak. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, Aleksandr Faynbergning she'rlarini rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan va shoirning zamondoshi bo'lgan Rustam Musurmon shoir haqida shunday degan; “...adabiyotimizning ulkan namoyondalari Aleksandr Faynbergni yaxshi ko'rar edilar. Nima uchun yaxshi ko'rar edilar. Birinchi o'rinda, u kishining sof yuragi bo'lgani uchun, ochiqko'ngilli inson bo'lgani uchun, yaxshi odam bo'lganligi uchun, ikkinchi o'rinda, u kishi nihoyatda katta iste'dod sohibi bo'lganligi uchun, uchinchi o'rinda, bizning vatanimizni o'zining vatani degani uchun...”

Aleksandr Faynberg nafaqat “O'zbekiston xalq shoiri”, balki xalqaro shoir sifatida ham olamga mashhurdir. U rus tilida she'rlar yozganligiga qaramay o'zbek tilini ham yaxshi bilgan, shu sababli o'zbek tilidan rus tiliga ko'plab tarjimalar qilgan. Tarjimalarini “Oqqushlar galasi” nomli kitobida jamlagan. Bu kitobda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Sirojiddin Sayyid, Rustam Musurmon, Xosiyat Rustamova, Jumaniyoz Jabborov, Usmon Azimov, Omon Matchon, Asqad Muxtor kabi o'zbek adabiyotining zabardast qalam sohiblarining she'rlarini rus tiliga o'g'irgan. Va o'zbek shoirlarining she'rlarini olamga tanitgan.

Aleksandr Faynbergning she'rlari inson umrining mazmunli va xayrli bo'lishiga qaratilgan .

Taqdir – haqdir
 CHiranma unga,
 Bor qilar ham yo'q qilar taqdir.
 Boshqa yozmish berilmas senga,
 Hayot yanglig' taqdir ham haqdir.

Taqdirning haqligini, inson umrini esa go'yoki bir yozmish deya va o'sha yozmish qayta berilmasligini, uni boricha qadrlash kerakligini ifodalagan shoir mana bu satrlar bilan esa, inson vijdoni va ruhining sof bo'lishi shartligini ifodalagan.

Ehtiyot qil ruhi joningni,
 Dunyo kengdir doimo kengga.
 Sotma faqat ruh, imoningni
 Boshqa ruh ham berilmas senga.